

J. K. ROULINGNING “HARRY POTTER AND THE PHILOSOPHER’S STONE” ROMANIDA IRONIYANING TARJIMADA QAYTA YARATILISH XUSUSIYATLARI

Fayziyev Baxodir Baxshilloevich

Buxoro davlat universiteti.

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrası

o’qituvchisi

b.b.fayziyev@buxdu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22097233>

Annotatsiya. Mazkur tezisda J. K. Roulingning *Harry Potter and the Philosopher’s Stone* romanidagi ironiyaning rus va o’zbek tillariga tarjimada qayta yaratilish xususiyatlari tadqiq etiladi. Inglizcha original, M. Spivakning ruscha tarjimasi hamda Sh. Dolimovning o’zbekcha tarjimasi qiyosiy tahlil qilinadi. O’zbekcha matn ruscha vositachi tarjima asosida yaratilgani sababli ironik birliklarning inglizcha → ruscha → o’zbekcha tarjima zanjiridagi transformatsiyasiga alohida e’tibor qaratiladi. Tahlil natijasida ironiyaning bevosita saqlanishi, ekspressiv kuchayishi, madaniy-pragmatik almashtirilishi, eksplitsitatsiyasi va referensial o’zgarish bilan funksional saqlanishi kabi holatlar kuzatiladi. Ironiyani tarjima qilishda alohida so’zning muqobilligidan ko’ra kontekstual ziddiyat, roviy pozitsiyasi, baholash va komik nomuvofiqlikni saqlash muhimligi asoslanadi.

Kalit so’zlar: ironiya, badiiy tarjima, bilvosita tarjima, stilistik transformatsiya, pragmatik ma’no, roviy pozitsiyasi, Harry Potter, ruscha tarjima, o’zbekcha tarjima.

Badiiy matnda ironiya muallifning voqea-hodisa yoki personajga munosabatini bevosita bayon qilmasdan ifodalash imkonini beruvchi muhim stilistik vositalardan biridir. Ironik ifodada yuzaki, lug’aviy mazmun bilan kontekst orqali anglashiladigan haqiqiy baho o’rtasida muayyan nomuvofiqlik vujudga keladi. I. R. Galperin ironiyani aynan lug’aviy ma’no va kontekstual ma’no o’rtasidagi qarama-qarshilik bilan bog’laydi [4]. Shu sababli ironiyaning tarjimasi alohida so’z yoki grammatik konstruktsiyani boshqa tilga o’tkazishdan murakkabroq jarayondir.

M. Mateo ironiyani tarjima qilishda uni anglash uchun zarur bo’lgan kontekstual signallar, madaniy bilim va baholovchi munosabat muhimligini ko’rsatadi [5]. L. Hutcheon esa ironiyani faqat tayyor lingvistik shakl sifatida emas, balki ifoda bilan uni talqin qiluvchi subyekt o’rtasida yuzaga keladigan diskursiv hodisa sifatida qaraydi [6]. Demak, tarjimada ironik gapning propozitsional mazmuni saqlanishi uning ironik ta’siri ham avtomatik ravishda saqlanganini anglatmaydi.

J. K. Roulingning *Harry Potter and the Philosopher’s Stone* romanida ironiya muallif uslubining faol elementlaridan biri hisoblanadi. U Dursleylar oilasining dunyoqarashini fosh qilish, qahramonlarning o’ziga xos nutqini shakllantirish, jiddiy vaziyatlarni yumor bilan pasaytirish hamda roviy bilan personaj bilimlari o’rtasidagi masofani ko’rsatishda ishlatiladi. Ayniqsa Dursleylarning “oddiylik”ka haddan tashqari intilishi bilan ularning g’ayrioddiy xatti-harakatlari o’rtasidagi ziddiyat romanning dastlabki boblaridanoq kuchli ironik fon yaratadi.

Mazkur tadqiqot materiali inglizcha original [1], M. Spivakning ruscha tarjimasi [2] va Sh. Dolimovning o’zbekcha tarjimasidan [3] iborat. Dolimov tarjimasining Spivak ruscha variantiga asoslanganligi uch matnni oddiy parallel tarjimalar emas, birlamchi manba matn → vositachi matn → yakuniy maqsad matn zanjiri sifatida o’rganishni talab qiladi. Bilvosita tarjimini

“tarjimaning tarjimasi” sifatida tadqiq etgan A. Assis Rosa, H. Pięta va R. Bueno Maia ham bunday holatlarda vositachi matnni mustaqil transformatsion bosqich sifatida tekshirish zarurligini ta’kidlaydilar [8].

Asarning boshlanishidagi mashhur jumla ironiyaning tarjimadagi holatini yaqqol ko’rsatadi. Dursleylar o’zlarini “perfectly normal, thank you very much” deb hisoblashlari bilan faxrlanadilar [1]. Yuzaki ma’noda bu ularning mutlaqo oddiy oila ekanini anglatadi. Biroq keyingi kontekst “oddiylik” Dursleylar uchun sog’lom me’yor emas, balki har qanday g’ayrioddiy hodisaga nisbatan murosasizlik darajasiga yetganini ko’rsatadi. Natijada “perfectly normal” iborasi muallifning masofali, kinoyaviy bahosiga aylanadi.

M. Spivak tarjimasida ushbu qism “люди абсолютно нормальные, спасибо преогромное” tarzida beriladi [2]. *Абсолютно нормальные* birikmasi manba mazmunini saqlasa, *спасибо преогромное* shakli rus tilida so’zlashuvga xos bo’rttirilgan ekspressivlik hosil qiladi. Natijada inglizchadagi ironik o’zini oqlash ohangi ruscha variantda hatto biroz kuchayadi.

Sh. Dolimov matnida esa bu kommunikativ formula “Xudoga shukurlar bo’lsinki, xonadonimizdagi hayot mutlaqo me’yoriy tarzda kechmoqda” mazmunida qayta quriladi [3]. Bu yerda inglizcha *thank you very much* va ruscha *спасибо преогромное* o’rniga o’zbek kommunikativ madaniyatiga xos shukronalik formulasi paydo bo’ladi. Propozitsional yadroning - Dursleylarning o’z hayotini “mutlaqo me’yoriy” deb baholashining - saqlanishi ironiyaning kontekst orqali davom etishiga imkon beradi. Biroq ironiyani yuzaga chiqaruvchi nutqiy signal o’zgargan: inglizcha va ruscha matndagi biroz tajang, himoyalannuvchi ohang o’zbekchada samimiy shukronalikka yaqinroq formula bilan ifodalanadi. Shunday qilib, bu holatda madaniy-pragmatik almashtirish kuzatiladi.

Ironiyaning boshqa ko’rinishi roviy va personaj bilimlari o’rtasidagi tafovut bilan bog’liq. Roulingning “How very wrong he was” jumlasini [1] qahramonning o’z xulosasiga ishonchi bilan roviy va o’quvchining keyingi voqealar haqidagi ustun axborot pozitsiyasi o’rtasidagi qarama-qarshilikni ochadi. Ruscha “Как же он ошибался!” [2] shakli manba jumlaning qisqaligi, qat’iyligi va undov ohangini deyarli to’liq saqlaydi.

O’zbekcha “Qanday yanglishganini bilsa edi u” [3] varianti esa qiziqarli modal o’zgarishni yuzaga keltiradi. Original va ruscha matn qahramonning yanglishganini to’g’ridan-to’g’ri tasdiqlasa, o’zbekcha shakl “bilsa edi” konstruktsiyasi orqali uning o’z xatosidan hali bexabar ekanini oldinga chiqaradi. Natijada propozitsional qurilish o’zgarsa-da, dramatik ironiya uchun asos bo’lgan o’quvchi bilimi va personaj bilimi o’rtasidagi tafovut saqlanadi. Hatto ushbu tafovut o’zbekcha matnda aniqroq seziladi. Bu shakl o’zgarishi stilistik funksiyaning yo’qolishi degani emasligini ko’rsatadi.

Dambldor nutqidagi yumor ham ironiyaning tarjimada qayta yaratilishi uchun muhim material beradi. Uning “I haven’t blushed so much since Madam Pomfrey told me she liked my new earmuffs” mazmunidagi gapi jiddiy vaziyatni oddiy kiyim detali bilan kutilmaganda pasaytiradi [1]. Nufuzli va dono qahramonning yangi quloqchilari maqtalgani uchun qizarishi tantanavor vaziyat bilan maishiy detal o’rtasida komik nomuvofiqlik hosil qiladi.

Spivak tarjimasida *earmuffs* “меховые наушники” sifatida berilib, predmet ham, ironik-komik vazifa ham saqlanadi [2]. O’zbekcha matnda esa shu o’rinda “boshmoqchalarim” shakli ishlatiladi [3]. Referensial predmet o’zgargan: quloqchin o’rniga oyoq kiyimi paydo bo’lgan. Biroq asosiy stilistik mexanizm - Dambldorning yuksak maqomi bilan mayda maishiy detal

o'rtasidagi kutilmagan qarama-qarshilik - davom etadi. Demak, referensial muvofiqlik buzilgan bo'lsa-da, komik-ironiya funksional jihatdan qisman saqlangan.

Petuniya Dursleyning tashqi qiyofasi tasvirida esa ironiya giperbola bilan birgalikda ishlaydi. Muallif uning bo'yni odatdagidan qariyb ikki baravar uzunligini va bu xususiyat qo'shnilarini devor ortidan kuzatishga "juda qo'l kelishini" ta'kidlaydi [1]. Ironiyaning markazi anatomik belgining o'zida emas, balki bu g'ayritabiiy xususiyatning foydasi personajning salbiy odati - boshqalarning ishiga aralashish bilan bog'lanishidadir.

Ruscha tarjimada uzun bo'yin va uning "foydaliligi" orasidagi sababiy-ironik munosabat saqlanadi [2]. O'zbekcha variant esa Petuniyaning "haddan tashqari qiziquvchan tabiati", qo'shnilarini kuzatishi va ularning sirlaridan xabardor bo'lishni juda yoqtirishini kengroq izohlaydi [3]. Bunda asliyatda ko'proq inferensiya orqali anglashiladigan xarakterologik baho ochiqroq verbalizatsiya qilinadi. Natijada ironik funksiya yo'qolmaydi, lekin uning subtil, bilvosita shakli eksplitsitroq baholashga o'tadi.

Tahlil qilingan misollar ironiyani tarjima qilishda bir necha turdagi transformatsiyani ko'rsatadi. Bir holatda ironik konstruktsiya deyarli to'liq saqlanadi; boshqa holatda u ekspressiv jihatdan kuchayadi; uchinchi holatda madaniy-pragmatik formula bilan almashtiriladi; ayrim o'rinlarda esa predmet o'zgarganiga qaramay komik nomuvofiqlik davom etadi. Shuningdek, bilvosita tarjima tufayli o'zbekcha matndagi ayrim xususiyatlarning kelib chiqishini faqat inglizcha va o'zbekcha variantni qiyoslash orqali aniqlash mumkin emas. Buning uchun M. Spivak matnini vositachi bosqich sifatida hisobga olish zarur.

Xulosa qilib aytganda, *Harry Potter and the Philosopher's Stone* romanida ironiya muallifning baholovchi pozitsiyasi, personaj xarakteri va asarning yumoristik ohangini shakllantiruvchi muhim stilistik vositadir. Uning tarjimadagi muvaffaqiyatini faqat so'zma-so'z moslik bilan baholash yetarli emas. Asosiy mezonlar - literal mazmun va kontekstual baho o'rtasidagi ziddiyat, roviy masofasi, personaj va o'quvchi bilimining nisbati, komik nomuvofiqlik hamda pragmatik signalning qay darajada qayta yaratilganidir. Inglizcha → ruscha → o'zbekcha tarjima zanjiri ironik effekt ba'zan saqlanishi, ba'zan kuchayishi, madaniy jihatdan qayta kodlanishi yoki eksplitsit shaklga o'tishi mumkinligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Rowling J. K. *Harry Potter and the Philosopher's Stone*. - London: Bloomsbury, 2004 [first published 1997].
2. Роулинг Дж. К. *Гарри Поттер и философский камень* / пер. с англ. М. Спивак. - Москва: Махаон, 2014.
3. Rouling J. K. *Garri Potter va afsonaviy tosh* / ruschadan Sh. Dolimov tarjimasi. - Toshkent: Zukko kitobxon, 2021. - 368 b.
4. Galperin I. R. *Stylistics*. - Moscow: Higher School, 1977.
5. Mateo M. The Translation of Irony // *Meta*. - 1995. - Vol. 40, No. 1. - P. 171-178. DOI: 10.7202/003595ar.
6. Hutcheon L. *Irony's Edge: The Theory and Politics of Irony*. - London; New York: Routledge, 1994.
7. Boase-Beier J. *Translation and Style*. 2nd ed. - London; New York: Routledge, 2020.
8. Rosa A. A., Pięta H., Bueno Maia R. Theoretical, Methodological and Terminological Issues Regarding Indirect Translation: An Overview // *Translation Studies*. - 2017. - Vol. 10, No. 2. - P.

113–132. DOI: 10.1080/14781700.2017.1285247.

9. Inggs J. From Harry to Garri: Strategies for the Transfer of Culture and Ideology in Russian Translations of Two English Fantasy Stories // *Meta*. - 2003. - Vol. 48, Nos. 1–2. - P. 285–297. DOI: 10.7202/006975ar.

10. Lathey G. *Translating Children's Literature*. - London; New York: Routledge, 2016.